



MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTI FAOLIYATI: KECHA VA BUGUN

Annotation:

Ushbu maqolada fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoxud mahalla institutining jamiyatimizdagi roli, shuningdek hukumat tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan moddiy yordamlarni o'z vaqtida, adolatli taqsimlash, aholiga zarur ko'rsatmalarni yetkazish va ularning o'rnatilgan cheklovlarga amal qilishini ta'minlashda ham mahallalar muhim roli, o'tmishi va bugunini qanday qiyofada aks etirish mumkinligi tahlil qilinib, Prezidentimiz boshchiligidagi davlatimizda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil tanishib chiqishingiz mumkin.

Keywords:

mahalla, o'zini-o'zi boshqarish organlari, fuqarolik, jamiyat, demokratiya, inson, tizim, xodimlar, huquq, erkinlik, gorizontal boshqaruv, jamoatchilik nazorati.

Information about the authors

Boltayev B.B. Buxoro
davlat universiteti t.f.f.d.(PhD), dotsent
Choriyev Jaxongir Oltin o'g'li
Buxoro davlat universiteti talabasi

KIRISH QISM (INTRODUCTION)

Davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasida, nafaqat O'zbekiston balki Markaziy Osiyo madaniyatining turfa o'choqlari, urf-odatlar va an'analar shakllangan. Eng avvalo, mahalla so'zining o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, "Mahalla" so'zi arabcha "Mahallun" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma'noni anglatadi [1]. Mahalla (arabcha joy, o'rin, makon) – 1) shaharning ma'lum bir hududini o'z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, o'zini-o'zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy-hududiy bo'lagi;

2) ayni bir hududda yashovchilar, mahalla a'zolari;

3) mahalla kengashi va u o'rnashgan bino, mahalla guzari.

Vatanimiz tarixi shundan guvohlik beradiki, o'zbeklar jamiyatida jamoa bo'lib yashashning sinalgan shakli mahalladir. Mahalla tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, jez davrining yodgorligi bo'lgan Sopollitepada 8 ta oila yashagan. Keyinchalik, ularning safiga pat riarxal tizim asosida 100 dan ortiq oilalar kelib qo'shilgan. Katta oilalar jamoasini oqsoqollar boshqargan, ular esa o'z navbatida, oqsoqollar kengashiga birlashgan. Demak, mahalla qadimda mahalliy hokimiyatning o'ziga xos shakli, ko'rinishi tarzida faoliyat ko'rsatgan.

Mahalla shaharlar ichidagi kichik hududiy birlik bo'lib, o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda. Ma'lum bir mahallada istiqomat qiluvchi odamlar faqat qo'ni-qo'shnichilik rishtalari bilangina emas, balki ichki tartib-qoida, ma'naviy axloqiy normalar, urf-odatlar, an'analar, umumiy manfaatlar va majburiyatlar bilan ham bog'liqdir. Agar Yevropa mamlakatlaridagi shaharlarda odamlar ijtimoiy kelib chiqishiga qarab "aslzodalar kvartali", "kambag'allar kvartali" va hokazolarga bo'linib yashasa, bizning Vatanimizdagi mahallalarda aholining turli ijtimoiy tabaqalari yonma-yon yashab kelmoqda [2]. Shuningdek, demokratiyaning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi



hisoblanib, O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tizimining asosiy bo'g'inini mahallalar tashkil qiladi [3]. Demak, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishini yaxshi bilishimiz uchun, dastavval, uning asosiy bo'g'ini bo'lmish mahallalarning tarixini o'rganishimiz lozim, zero haqqoniy tarixni bilmasdan turib o'zlikni anglash mumkin emas. Birgina Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida yurtimiz hududida mingdan ortiq mahallalar mavjud ekanligi, Somoniylar davrida bu yanada madaniylashganligi qayd qilib o'tilgan. Mahalladagi farovonlik va qizg'in hayot temuriylar davrida gullab yashnaganligi haqida tarix guvohlik bermoqda. Kosibchilar, temirchilar, duradgorlar, nonvoylar, usta-hunarmandlar va hokazo kasbiy birlik asosida, ma'lum bir soha vakillarining umumiy bir ko'cha yoxud mahalla bo'lib istiqomat qilishgan. O'zini-o'zi boshqarish organlari bir necha asrlar ilgari davlatning quyi mahalliy boshqaruvi funksiyalarini bajaruvchi siyosiy tashkilot sifatida shakllangan. Fransuz siyosatchisi, konservativ tartib partiyasi rahbari, **Aleksis de Tokvil qayd etganidek, "Millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumatni shakllantirishi mumkin, lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiyatiga ega bo'la olmaydi"** [4].

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish (munitsipal- "munitsipal" (inglizcha) o'zini-o'zi boshqarish deb, u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarishga aytiladi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, milliy davlatchilik an'analariga, qadriyatlariga mos keluvchi va xalqning xohish-irodasini tashkil etuvchi o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimini tashkil etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. O'zini-o'zi boshqarish organlarini erkinlashtirish borasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat bosh islohotchi sifatida amalga oshirgan chora-tadbirlar yordamida respublikamizda fuqarolik jamiyatining poydevori shakllandi.

Fuqarolarning huquqiy va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki muhim demokratik qadriyat sifatida har qanday mamlakatda ham o'zini-o'zi boshqarish organlari vositasida amalga oshiriladi. Shu bois jamiyatning demokratlashuvi va huquqiy davlat maqomiga erishuvi ko'p tomondan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlarida qay darajada ishtirok etishiga bog'liq. Vaholanki, demokratiyaning mazmuni - fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokida o'zaro tenglik bo'lishini va mazkur jarayonlarda hamisha ozchilik huquqlarini himoya qilishni e'tiborga olgan holda ko'pchilik ovozi asosida huquqiy qarorlar qabul qilinadigan o'zini o'zi boshqarishga bo'lgan qobiliyati bilan ifodalanadi.

Asosiy qism: Davlatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng qisqa vaqt ichida asrga tatigulik ko'plab ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik sharofati bilan 1992-yil boshlaridan boshlab mavze (kvartal)larga ham mahalla maqomi berilib, ularning har biriga joylashgan hududining tarixini tahlil qilib, ularga munosib nom berish jarayonlari bo'lib o'tdi. Yangi mahallalarda fuqarolar yig'ini o'tkazilib, mahalla oqsoqoli va mas'ul kotiblar saylandi. O'zbekiston davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, mahallaga munosabat tubdan o'zgardi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish tizimi tubdan isloh qilindi. Bu borada fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimini davlat hokimiyati tizimidan ajratish tomon yo'l tutilganidan ham ko'rish mumkin deb o'ylaymiz. Davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining mustaqilligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (34-,36-,40-,69-,127-moddalari) da mustahkamlab qo'yilganligini qayd qilib, asosiy Konstitutsiyamizning 21-bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari"-deb nomlanadi [5]. Bu tabiiyki, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari davlat organlari tizimiga kirmasligidan dalolat beradi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 127- moddasida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari haqidagi tushunchasi va tizimi hamda asosiy vazifasi va mavqeyi to'liq mustahkamlandi.

Mahallalarning boshqaruv xodimlari soni soliqchi va ijtimoiy xodim qo'shilishi hisobiga 5 tadan 7 taga ko'paydi. Mahallaning o'zida 70 dan ortiq masala, jumladan, moddiy yordam va kreditlar hal etiladi. Shuningdek, mahalla raislarining vakolatlarini yanada kengaytirish maqsadida, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2023-yil 26-sentabr kuni mahallabay ishlash tizimini kuchaytirish yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektorda mamlakatda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib



chiqib, joylarda amalga oshirilayotgani, buning uchun mahallalarga ko'plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilayotganini ta'kidlab, "Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat "beshlik tizimi"ni tashkil etilganligini ta'kidlab o'tdilar. Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezoni yo'qligi, ularning ko'p vaqti "qog'oz to'ldirish" va majlislarga ketayotganligi" ni Prezidentimiz alohida tanqid qilib o'tdi. Bo'lib o'tgan ushbu yig'ilishdan so'ng, Shavkat Mirziyoyev mahalladagi beshlik "mahalla yettiligi"ga aylantirilganligini yangicha tizimda ish yuritish vaqti kelganligini bildirib o'tdi. Bunda ularning safiga soliq inspeksiyasi vakili va ijtimoiy xodim ham kiritilishi ta'kidlab o'tilgan edi. Bundan tashqari, ehtiyojmand aholini ro'yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar, tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o'zida jamoaviy hal qilinishi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg'armalari mablag'lari har bir mahallaga taqsimlab berilishi belgilab qo'yilgan edi [6].

Bugungi kunda zamonning shiddat bilan o'zgarayotganligi, mahallalarni muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur ekanligi, hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo'limiz mahallani rivojlantirishdan iboratligi, mahalla tizimi obro'yini oshirish, odamlar ishonchini oqlash va ularni bizdan rozi qilish eng asosiy vazifamiz deya ta'kidlagan edi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev. "Muallim va shifokorlarning rasmiylashtiradigan qancha qog'ozi bor edi? Shularni deyarli yo'q qildik-ku. Qog'ozbozlik mahalla tizimida umuman yo'q bo'lishi kerak", - deb ta'kidlab o'tgan edi davlatimiz rahbari mahalla faollari bilan bo'lgan uchrashuvda. Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirish uchun "mahalla yettiligi" bilan ishlashni o'rganish zarurligini ta'kidladi. "2024-yil boshida davlat rahbari yaxshi tizim yo'lga qo'yamiz odamlar bizdan rozi bo'ladi deya fikr bildirib o'tar ekan mahalla tashkilotlariga yuqori baho berib o'tib katta ishonch bildirib o'tdilar. Mahallalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlarining joriy etilishi Respublika kengashiga - bosh vazir, hududiy kengashlarga esa hokimlarning rahbarlik qilishi, mahalliy kengashlar "mahalla yettiligi" qo'yan masalalarga yechim topilishini moliyaviy manbalarini topishda ham asosiy hal qiluvchi omil bo'lishi ishonch bilan o'z ma'ruzalarida aytib o'tgan edilar [7].

"Davlatimiz rahbari prezidentlikka saylangan kunidan boshlab, hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda hal qilib kelayaptilar. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirish, yana qo'shimcha kuch, imkoniyatlar izlanayotganligi. Bu ham vakolat, ham mas'uliyat ekanligi his qilgan holda: **"Mahallalar - davlatimizning eng katta zamini"**, - uni asrab avaylash bizning eng asosiy vazifamizdir deb qayd etib o'tdilar davlatimiz rahbari. "Mahallabay" ishlash tizimining davlatimizning chekka hududlarida ham yo'lga qo'yilishi bu boradagi islohotlarning uzviy davomi bo'ldi desak, aslo xato qilmaymiz. Chunki, mamlakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni aholi talabidan kelib chiqib amalga oshirishda mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimidan iborat "Mahalla yettiligi"ning o'z o'rnini oshib bormoqda. O'tgan qisqa vaqt shuni ko'rsatdiki, mahallalarda ushbu lavozimlarning joriy etilishi davlat fuqarolik xizmati oldida turgan qator muhim masalalarni birlamchi bo'g'inda hal qilishga yordam berishi natijalarni yaxshilashi kuzatildi. Bundan tashqari, mahallalarda qator institutsional o'zgarishlar ham amalga oshirildi. Bular:

– oila, xotin-qizlar va keksalarni qo'llab-quvvatlash, fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlik o'rnatish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi – **Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi** tashkil etildi;

– **"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti** tashkil etildi;

– aholi murojaatlari va muammolarini aniqlash hamda hal etishda **"Mahalla – sektor – xalq qabulxonasi – mahalla"** prinsipi asosida hamkorlik tizimi joriy etildi;

– **"Obod va xavfsiz mahalla"** tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etildi;

– mahallalarda huquq-tartibot, oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy hamda obodonlashtirish,



tomorqa va tadbirkorlik bo'yicha **3 nafar mahalla raisining o'rinbosari** lavozimi joriy etildi;

– yoshlar hamda keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan mahalla raisining **2 nafar maslahatchisi** lavozimlari kiritildi;

– mahallalarda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo'yicha **komissiyalar, “Keksalar maslahati”** guruhlari, **“Buvijonlar maktabi”** kengashlari va **“Ota-onalar universiteti”** jamoatchilik tuzilmasi tashkil etildi.

Shuningdek, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan yangi tizim doirasida:

– mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan **“Harakatlar formulasi”** ishlab chiqildi va joriy etildi;

– profilaktika inspektorlarining mahalla aholisiga **oyma-oy hisobot berish** tizimi yo'lga qo'yildi;

– profilaktika inspektorlarining **jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari, xotin-qizlar bilan ishlash masalalari bo'yicha inspektor** lavozimlari joriy etildi;

– haftaning har payshanba kuni **“Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni”** etib belgilandi;

– **8 233 ta** mahallada **Jamoatchilik nazorati maskanlari** tashkil etildi;

– mahalla faollari tomonidan ajrim yoqasiga kelib qolgan **21 mingdan ortiq** oilalar yarashtirildi;

– mahallalarda jinoyatlar soni kamayishiga erishildi. Jumladan, 2016 yilda jinoyat sodir etilmagan mahallalar soni **9,5 foizni (853 ta)** tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda **33,7 foizni (3 074 ta)** tashkil qildi. 2020 yilning 5 oyi davomida **69,9 foiz (6 393)** mahallalarda jinoyat sodir etilmadi.

Mahallarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha ham qator ishlar qilindi, jumladan:

– **730 ta** mahalla idorasi yangidan qurildi, **2 343 tasi** rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi;

– **4 178 ta** mahalla binolarida kutubxonalar tashkil etildi;

– **102 ta** tuman va shahar markazida «Mahalla markazi» majmualari barpo etildi;

– **2 078 ta** mahalla mebel jihozlari, **1 249 tasi** kompyuter, **2 965 tasi** telefon aloqasi bilan ta'minlandi,

1 293 tasi internet tarmog'iga ulandi;

– fuqarolar yig'inlariga O'zbekiston Milliy kutubxonasi resurslaridan onlayn foydalanish imkoniyati yaratildi;

– mahallalarda **1 300 dan ortiq** ijodiy to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi [8].

Tizimda mehnat qilayotgan xodimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar ham belgilangan. Xususan, mahalla instituti xodimlarining oylik maoshlari **3 baravarga** oshirildi, **“Mahalla iftixori”** ko'krak nishoni ta'sis etilib, bugungacha **632 nafar** faollar mazkur nishon bilan taqdirlandi. 22 mart kuni esa **“Mahalla xodimlari kuni”** sifatida belgilandi. Mahallalarga berilayotgan e'tibor, tizimga oid qonun va qonunosti hujjatlari ularning mas'uliyatini oshiradi. Haqiqatan ham, hozir aksariyat mahallalarda har qachongidan ko'ra samarali faoliyat olib borish uchun barcha zarur sharoitlar bor. Oxirgi vaqtlarda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda mahallalar faoliyatidan norozi bo'layotganlar, tizimdagi adolatsizlik va ta'magirliklar haqidagi xabarlar uchrab turibdi. Ayniqsa, karantin davrida ijtimoiy yordam pullarini taqsimlashda mahallalardan norozilik kayfiyati yanada kuchaydi. Bu, o'z navbatida, vazifasini vijdonan bajarib kelayotgan mahallalarga bo'lgan ishonchga ham putur yetkazdi. O'zini-o'zi boshqarish organlari bu kabi holatlardan to'g'ri xulosa chiqarib, xatolarni kamaytirishi, o'z vakolatlari doirasida aholi manfaati uchun xizmat qilishi, bir so'z bilan aytganda, davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'priikka aylanishi lozim.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yana-da qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi oila, xotin-qizlar va keksalarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik o'rnatish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi ekanligi belgilab qo'yildi. Mahalla institutining jamiyatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rnini hisobga olib, soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 22-mart - "Mahalla tizimi xodimlari kuni" deb e'lon qilindi.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-manaviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham mahalla faoliyatining kafolatiga tegishli muhim jihatni ko'zdan qochirib bo'lmaydi. Farmonning 1-bandida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat organlarning va ularning mansabdor shaxslari aralashiga yo'l qo'yilmasligi kafolatlangan [9]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PF-209- son "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonning 6-bandiga ko'ra, 2024-yilning 1-martidan boshlab respublikamizning butun hududida "Mahalla budjeti" tizimi amaliyotga joriy etilishi alohida yangi huquqiy kafolat sifatida belgilangan. Shuningdek "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunning 23-moddasiga o'zgartirish kiritilib endilikda fuqarolar yig'ini raisi vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirildi [10]. Ilk taraqqiyot sivilizatsiyamizdan hozirgi kunga qadar mahalla institutini shakllantirdik, rivojlantirdik. Mustaqilligimizning ilk kunlarida ham bu tizimga beparvo qaralmadi. Ammo, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonimizda kashfiyotlar va turli xil o'zgarishlar amalga oshirilib borilmoqda. Bunday ijobiy o'zgarishlar, albatta, butun jamiyat uchun foydali lekin bunday jamiyatda yomon illatlar ham yo'q emas, afsuski. Bunday illat yoki jinoyatlar barcha rivojlanib borayotgan mamlakat hamda jamiyatga katta zarar yetkazadi. Shu muammolar yil sayin rivojlanganligi sari, mahalla instituti ham, uning mavqeyi, vazifalari ham o'zgarmasdan qola olmaydi. Chunki, biz mahalla institutiga shunchaki tashkiliy birlik sifatida emas, balki ijtimoiy harakatdagi doimiy rivojlanadigan hamda shaxslar, fuqarolar murojaatlariga tez va to'liq amaliy yordam bera oladigan, xalqni dardiga yechim bera oladigan tashkilot sifatida qarashimiz kerak. Shu birgina quyi tizim sifatida qaralayotgan mahalla barcha muammo va huquqbuzarliklarning boshlanish nuqtasi va keyinchalik o'chog'iga aylanishini bir o'ylab ko'ring. Birgina shu kichkina bo'g'in qancha jinoyatlarni oldini olyapti vaholanki jinoyat sodir etganlarni ham jamiyatga moslashishiga, o'rin egallashiga ko'mak beryapti.

Shavkat Mirziyoyevning "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" kitobida "Mahalla – Vatan ichra mo'jaz vatan" degan alohida faslida qayd etilganidek, "jamiyat va davlatning taraqqiyotini "inson – xonadon – mahalla – tuman – viloyat – respublika" prinsipiga asoslangan barqaror rivojlanish orqali ta'minlash mumkin" [11]. Ushbu prinsipga asoslangan barqaror rivojlanish orqali sohada olib borilayotgan chuqur izlanish va islohotlar kelajakda mahalla institutining rolini yanada oshiradi.

Mahallalarda tarixan shakllangan milliy va ma'naviy qadriyatlarni har tomonlama o'rganish, e'zozlash va izchil targ'ib qilish imkoniyatlari kengdir. Shu bois, O'zbekistonda mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab, mahalla institutiga katta ahamiyat berildi hamda 1992 yil 12 sentabrda respublika "Mahalla jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" Farmon va 1993 yil sentabr oyida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Mahalla o'z ahlining ma'naviy, ruhiy dunyosi, mafkuraviy ongi va tafakkuri, insonlarning o'zaro aloqalari, oilaviy munosabatlarini shakllantiruvchi, qo'ni-qo'shnichilik, quda-andachilik kabi muammo va masalalarni hal etuvchi nodavlat tashkilotdir. U jamiyat hayotida tinchlik va osoyishtalikni, hamjihatlik va hamkorlikni saqlashda mehr-oqibatlilik, shafqat va muruvvat kabi usullar bilan har qanday mavjud muammolarning yechimini topa oladigan ijtimoiy hodisadir [12].



Mahalla avvalo, sogʻlom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli taʼsirga ega boʻlgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, oʻzaro munosabatlarini adolat va maʼnaviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Mahallada keng jamoatchilik oʻrtasida maʼnaviy ishlarni samarali yoʻlga qoʻyish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt shaʼni uchun kurash kabi fazilatlar kamol topishida mahallaning oʻrni beqiyos. Mahalla doirasida amalga oshiriladigan taʼlim va savodxonlik kurslarini tashkil etish, anʼanaviy bayram va tadbirlar paytida muhtoj oilalarga yordam koʻrsatish, iqtidorli yoshlarni ragʻbatlantirish, ayollar nufuzini oshirish, turli adolatsizliklarning oldini olish, OAV imkoniyatlaridan foydalanish, boshqa muassasalar bilan oʻzaro aloqani yaxshilash, hamkorlikda tadbirlar uyushtirish, turli avlod vakillari oʻrtasidagi munosabatlarni takomillashtirish orqali targʻibot oʻziga xos tarzda amalga oshiriladi. Yaʼni, bunda ham taʼsir vositalari sifatida ijtimoiy reklama, turli kurslar tashkil etish, oilalarga psixologik xizmatni yoʻlga qoʻyish, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, otalar nasihatlarini asosida yoshlarni tarbiyalash ishida keng foydalanish, OAV orqali berilayotgan maʼlumotlarning psixolingvistik tahlilini amalga oshirish, ijtimoiy fikrning mahallalar boʻyicha monitoringini olib borish muhim ahamiyatga ega [13]. Shunda mahalla fuqarolar, birinchi navbatda, yoshlarni milliy gʻoya ruhida tarbiyalashning chinakam taʼsirchan oʻchogʻiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Joʻrayev Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot (ilmiy-tahliliy maqolalar toʻplami). T., 2003.18-b
2. А.Токвиль Старый порядок и революция – М:1991. 26-28 б
3. Jalilov Sh.N. Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari: tajriba,tahlil,amaliyot. T. Oʻzbekiston, 2001. 3-6.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Dinara_Muhitdinova/Aleksis_de_Tokvil
5. <https://lex.uz/docs/-6445145>
6. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/>
7. Shavkat Mirziyoyevning “Hozirgi zamon va Yangi Oʻzbekiston”. Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti,2024. 15-b
8. https://kun.uz/news/2020/08/28/mahalla-instituti-songgi-yillarda-nimalar_ozgardi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2020%2F08%2F28%2Fmahalla-instituti-songgi-yillarda-nimalar-ozgardi
9. <https://lex.uz/docs/-4740345>
10. <https://lex.uz/docs/-2156899>
11. Sh.Mirziyoyev.Yangi Oʻzbekiston Strategiyasi.-Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti,2021.45-b
12. <https://oyina.uz/uz/teahouse/1950>
13. Қ.Назаров ва б. – Маънавият асосий тушунчалар луғати. [Матн]: луғат. //Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2021. – 28-29 б